

MUTAXASSISLIK FANLARINI O`QITISHDA O`QUV-USLUBIY  
TA'MINOTNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI.

Mambekova Shaxnoza Kudiyarbekovna

*Stajor o`qituvchi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Texnologik ta'limga metodikasi” kafedrasи*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mutaxassislik fanlari o`qitish jarayoni hamda unda o`quv-uslubiy ta'minotdan foydalanishning ahamiyati hamda shu asosda o`quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** mutaxassislik fani, o`quv-uslubiy ta'minot, o`qitish, ta'limga jarayoni.

Respublikamizda robototexnika sohasining tez rivojlanishi yuqori malakali ishchi va texnik xodimlarga bo`lgan ehtiyojni kuchaytiradi, buning asosiy negizi esa o`z navbatida umumta'limga maktabalarida texnologiya fanlaridan dars beradigan texnologiya fani o`qituvchisi kasbini egallagan mutaxassislarga bo`lgan talabni oshiradi. Texnologiya fani yo`nalishi bo'lajak o`qituvchisi tabiiy, texnik va texnologik bilimlarga ega bo`lishi zarur. U faqat bilimlarni ta'limga oluvchilarga yetkazish bilan bir qatorda ta'limga jarayonini tashkil etish, boshqarish, loyihalash, konstruksiyalash hamda kasbiy pedagogik madaniyatga ega bo`lishi kerak. Olib borilgan tajribalar shuni ko`rsatadiki, o'sib kelayotgan yosh avlodni muhandislik-texnologik tayyorgarligini oshirish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun har xil axborotlar va faoliyat turlarini o`quv grafik faoliyat mazmuni orqali integratsiyalashgan holatda yetkazish asosiy sharti hisoblanadi.

B.B.Murov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda “Darsning muvaffaqiyati nafaqat o`qituvchining unga astoydil tayyorlanishi, balki ta'limga oluvchilarning darsga tayyorgarliklari hamda dars loyihasining muvaffaqiyatlari tuzilganligiga bog'liq” ekanligi ko`rsatib o'tilgan. Texnologiya fani yo`nalishi bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida umumkasbiy va pedagogik turkum fanlari mazmunini loyihalashtirish muhim ahamiyatga ega. Endilikda asosiy e'tibor texnologiya ta'limga o`ziga xos xususiyatlarini aks etirgan, fundamental hamda umumkasbiy va pedagogik turkum fanlar mazmunini loyihalashtirishga qaratilmoqda.

Ta'limga tizimida mazmun didaktik jarayonning ijtimoiy maqsadlariga erishishini ta'minlaydigan asosiy elementi hisoblanadi. Ta'limga mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

- samarali pedagogik faoliyat tajribalari, ya'ni mehnat faoliyati, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi vazifalarni muvaffaqiyatlari hal etish;
- umumiyligi maqsadlarga erishish jarayonida ijtimoiy jihatdan o'zaro ta'sir eta bilish tajribalari;
- insonlar hamjamiyatining axloq, huquq va boshqa normalarda aks etgan axloqiy va etik tajribalari;
- ma'naviy-madaniy tajribalar, hayotni obrazli-hissiy idrok etish, uning ko'rinishlariga estetik munosabatlar.

S. I. Arxangelskiy oliy ta'larning mazmuni haqida gapirar ekan, “Bu shunchaki ma'lumotlar, qonun-qoidalar va nizomlar yig'indisi emas, balki mutaxassisning ilgaridan ko'zlangan modeli mazmunidan va uning faoliyatiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqadigan ilmiy ma'lumotlar tizimidir” deb ta'kidlagan. Ta'lim mazmunini pedagogik jihatdan loyihalashtirish talabalar va pedagoglar kelgusi faoliyatining asosiy qismlarini oldindan ishlab chiqiladi va uning asosiy maqsadi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Mehnat ta'limi yo'nalihsida pedagogik tizimni loyihalashtirishda tizim strukturasini tashkil etuvchi asosiy elementlari sifatida ta'larning maqsadi, mazmuni, didaktik jarayonlari va ta'limni tashkil etish shakllari hisoblanadi. Pedagogik tizimni loyihalashtirish uchun dastlab, pedagogik tizim faoliyatining maqsadlari aniqlab olinadi va oliy ta'lim muassasasining bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka hamda umumdidaktik talablar hisobga olingan holda, ta'lim va tarbiyaning mazmuni tavsiflanadi. Ta'lim mazmuni ta'lim maqsadlariga mos ravishda tanlanadi. Keyingi bosqichda didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish amalga oshiriladi. Loyihalashtirishning so'nggi bosqichida ta'limni tashkil etish shakllari aniqlanadi va ishlab chiqilgan loyiha o'quv-metodik majmua hujjatlarida aks ettiriladi.

Pedagogik obyektni loyihalashtirishning tartibi tayyorlov, loyihani ishlab chiqish, loyiha sifatini tekshirish jarayonlaridan iborat. Tayyorlov jarayonida obyektni tahlil etish, shakllarini tanlash, didaktik ta'minoti, ta'lim jarayonining joyi va vaqt, moddiy-texnika ta'minoti aniqlashtiriladi. Loyerihani ishlab chiqish jarayonida uni tizimga keltiruvchi omillarni tanlash, tarkibiy qismlar orasidagi aloqalar va o'zaro bog'liqliklarni aniqlashtirish hamda hujjatni tayyorlashdan iborat bo'ladi. Loyerihani sifatini tekshirish uni amalga oshirish jarayonini fikran tajribadan o'tkazish, ekspert bahosi, tahrirlash, loyerihani amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

V. P. Bespalko tomonidan pedagogik jarayonning loyihalashtirilishi tarkibiy qismlar sifatida maqsad, asosiy qonun-qoidalar, mazmun, metodlar, vositalar va shakllar nazarda tutiladi. Pedagogik jarayon quyidagi: maqsad, mazmun, jarayon, baholash, natija kabi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Loyihalashtirishni pedagogik jarayonning tarkibiy qismlariga mos ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq, yani:

- o'quv jarayonning pedagogik tizim sifatida loyihalashtirilishi kerak bo'lgan elementi ajratib olinadi;
- maqsad qismi loyihalanadi;
- qo'yilgan maqsadlarga asosan o'quv materialining mazmuni tizimlashtiriladi, ya'ni ma'lum bir tizimga keltiriladi;
- kompetensiyalarni rivojlantirish qonuniyatlarini va bir tizimga keltirilgan mazmunning mantig'ini hisobga olgan holda, talabalarning bilim egallashi va amalda qo'llashni o'rGANISHI bo'yicha o'qituvchining harakatlar dasturi tuziladi.

Bundan kelib chiqadiki, ta'lim jarayonini loyihalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning boshlang'ich bosqichi – ta'lim maqsadini belgilashdan iborat.

Ta'lim maqsadi didaktikaning asosiy – “nima uchun o'qitish?” ni aniqlovchi bpsqichi bo'lib, yo'naltirish, boshqarish vazifalarini amalga oshiradi, pedagogik faoliyatning kutilajak natijasini belgilaydi. Maqsad tashqi va ichki rejalarini o'z ichiga oladi. Tashqi reja jamiyat ehtiyojarini, ishlab chiqarish talablarini, fan va texnikaning rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Ichki reja shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Maqsadlar refleksiv va bosqichli bo'lib, aniq ifodalanadi va dinamik xarakterga ega bo'ladi. Pedagogik faoliyatning maqsadlari ichki va tashqi omillarga mos ravishda o'zgarib turadi.

V. S. Bezrukova ta'kidlaydiki: "Jamiyat va davlat ehtiyojlari, ta'lim standartlari va oliv ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talablar bozorini o'rganish natijalari ta'lim maqsadlarini belgilashning an'anaviy metodologik asoslari hisoblanadi, lekin maqsadlarni belgilashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishda ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda, ta'lim jarayonining xarakterini va maqsadga erishishga qaratilgan harakatlar tezligini belgilaydigan omillar hisoblanadigan shaxsning ichki intilishlarini, kasbiy qiziqishlarini, maqsadlarni amalga oshirishga tayyorlik darajasini, psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur".

Mutaxassislik fanlari o'quv-uslubiy ta'minotini ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagi talablarga javob berishi samarali ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy element bo'lib xizmat qiladi:

- ta'lim tizimining umumiyligi tuzilmasini va uning muayyan bo'linmalarini aks ettirish;
- shaxsning psixologik tuzilishini hisobga olish;
- bilimlarni o'zlashtirish darajasi bo'yicha tuzish.

O'quv-uslubiy majmualar qanchalik turli-tuman bo'lmasin funksional jihatdan pedagogik tizimning modelli tavsifini aks ettiradi.

1. Tanlangan fan bo'yicha o'quv jarayonini tizimli-uslubiy ta'minlash vositasi sifatida ajralib turadi va bu uning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

2. Turli didaktik o'qitish vositalarini birlashtiradi hamda ularni ta'lim va tarbiya uchun yo'naltiradi.

3. O'rganilayotgan fan mazmuni, bitiruvchilarining bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talablarini ochadi va shu asosida uni amalga oshirish imkonini beradi.

4. angi bilimlar, novatorlik g'oyalari va ishlammalarni toplash uchun xizmat qiladi, pedagogning ijodiy potensiallarini oshiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'quv-uslubiy majmuani ishlab chiqarishga tizimli yondashuv kafedra va fakultetlarga o'zlarining o'quv va o'quv-uslubiy vositalari zahirasini yaratish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitish holati va muammolarini hal qilishga qaratilgan izlanishlar, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va amaliyotga joriy etish muammolari aniqlandi va bob yuzasidan fikrimizcha quyidagi xulosalarga erishildi:

1.Ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatini yuksaltirishda o'quv- metodik resurslarini mukammal tarkib toptirish ta'lim jarayonidagi sifatini oshirishga, ta'lim oluvchilarning bilim olishlarini osonlashtirishga muhim didaktik asos bo'ladi va unda ta'lim oluvchilardagi o'rganilayotgan jarayonilarni bevosita idrok etish asosida bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish jarayoniga oid asos tayyorlanadi.

2. Mutaxassislik fani bo'yicha ta'lim berishda o'quv-metodik resurslar maqsadli ravishda tayyorlansa dars mazmuni to'la o'zlashtirishga zamin (asos) tayyorlangan bo'ladi va ular ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun dars mazmunini yaxshi tushinib olishga xizmat qiladigan bo'lishi kerak.

3. Mutaxassislik fanlarida ta'lif berish jarayonida jamiyat taraqqiyotiga dinamik ravishda rivojlanib borishligini e'tiborga olgan holda ta'lif oluvchilar o'quv-biluv faoliyati muhitni asosiy ko'rsatkichlari bilan kredit-modul tizimining o'quv yuklamasi hamda o'qishni natijalariga oid asosiy ko'rsatkichlarni organik birlikda qarash kerak.

4. Ta'lif jarayonida o'quv-metodik ta'minotni uslubiy jihatdan takomillashtirish, uning mazmun va mohiyatini mutaxassislik faniga mos ravishda tarkib toptirish ta'lif oluvchilar tomonidan fan mazmunini samarali o'zlashtirilishini kafolatlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Mambekova Shaxnoza Kudiyarbekovna Texnologiya ta'limi yo'nalishida "Robototexnika asoslari" fani mazmuning ta'lif bosqichlari orasida uzbekligi "Ilm-fan va ta'lif" ilmiy jurnali 2181-4325 | <https://ilmfanatalim.uz/> | № 2. 40-42-b.

2. Гаффаров Ф.Х. Средства обучения как неотъемлемая часть научно-методического обеспечения образования // "Pedagogik mahorat" jurnal 4-son, Toshkent, 2017.

3. Olimov Q.T., G'afforov A.X., Nazimova F.R. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishning ayrim maummolari va ularni hal qilish yo'llari // "Pedagogik ta'lif" jurnal 6-son, Toshkent-2006.

4. Umarjonova Nodira Abduhamid kizi "THE ROLE OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY CONNECTION BASED ON THE USE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EFFICIENCY OF THE EDUCATIONAL PROCESS" INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY journal / <https://zenodo.org/records/11254188>.